E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

BOLALARNI O'Z IQTIDORINI YUZAGA CHIQISHIGA TO'SIQ BO'LUVCHI OMILLAR

Tursunboyeva Diyora
Namangan davlat universiteti
Pedagogika-psixologiya fakulteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi
2-bosqich talabasi.

Annotation: This article took into consideration about a variety of negative factors which can prevent children from pouring out their own ability and talent**.**

The key words: Attention, kindness , fear, defeat, dream.

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные негативные факторы, препятствующие раскрытию детьми своих талантов и способностей.

Ключевые слова: Внимание,привязанность,страх,поражение,желание

Anotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni o'z iste'dodini, qobilyatini yuzaga chiqishiga to'sqinlik ko'rsatadigan turli xil salbiy omillar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: E'tibor, mehr, qo'rquv, mag'lubiyat, orzu.

Odamzotning bu dunyodagi yakka-yu yagona oliy vazifasi-o'z taqdirini chiqarishga erishuvidir. Barcha odamlar yoshlik paytlarida o'z taqdirlarini biladilar. Ammo fursat o'tishi bilan sirli bir kuch ularni o'z taqdirlarini ro'yobga chiqarish imkonsiz ekanligiga ishontira boradi. Bu sirli qudrat inson zotiga g'animday tuyuladi, aslida esa o'z taqdirini qanday ro'yobga chiqarish yo'lini xuddi anashu qudrat ko'rsatib beradi. U insonning ruhini va erkini o'sha buyuk vazifaga tayyorlaydi. Bu kurrai zaminda oliy bir haqiqat mavjud: qachonki sen nimanidir astoyidil istasang, albatta unga erishasan, chunki bunday istak olamning ruhida dunyoga kelgan bo'ladi. Sen yer yuzida xuddi ana shuning uchun yaratilgansan. Paulo Koelo (Alkimyogar)

Inson hali dunyoga kelmasidan avval uni kim bo'lishi, qaysi kasbni egallashi yoki qanday shaxs bo'lib shakllanishini uning ota-onasi yoxud bobo-buvisi tomonidan belgilab qo'yilgan. Go'yoki bola ular tanlagan, ular belgilab qo'ygan ssenariy asosida ulg'aysa, eng mashxur inson, buyuk cho'qqilarni zabt etuvchi, ulkan marralar sari shahdam qadam tashlay oladigan shaxs bo'lib shakllanishadi. Ular uchun bolalarning xoxish va istaklari, qobilyati umuman ahamiyatsiz va keraksiz bir narsaday tuyuladi. Ota–ona birinchi navbatda qanday kasblarni tanlaydi bilasizmi? Ha albatta, eng zamonaviy, daromadi yuqori bo'lgan, ayni damda barcha shug'ullanayotgan kasbniva shu bilan bir qatorda o'z kasblarini davomchilari bo'lishini istaydilar va tanlaydilar.

Bola dunyoga keladi, o'z taqdiri tomon sekin asta qadam tashlay boshlaydi. "O'z taqdiri" bu o'zi nima? Bu hayotimizning oliy mohiyati-ro'yi zamindagi umrguzaronligimiz uchun tangrimiz tayyorlab qo'ygan yo'ldir. Biroq eng muqaddas orzular istiqboliga anashu yo'ldan borishga jur'at topish hammaga ham nasib qilavermaydi. [1]Paulo Koeloning "alkimyogar" asarida shunday yozilgan, Insonning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish uchun 4ta g'ov xalaqit beradi. Birinchisi shuki, odamzodga go'dakligidayoq hayotdagi eng katta orzulari amalga oshmaydigan orzular deb sindiriladi. U anashu tushuncha bilan ulg'ayadi. Yillar o'ta borgan sayin uning qalbi behisob istiholalar va qo'rquvdan qurum bog'lab boradi, gunohkorlik hissiga to'lib qoladi. Bir

[1] F. I. Xaydarov va N. I. Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent-2009.

kuni shunday lahza keladiki, o'z taqdiri yo'lidan borish istagi anashu chirkin yuk tufayli unga o'limdan ham qo'rqinchiliroq bo'lib tuyuladi va o'shanda inson o'zini bu dunyoga nima uchun kelganini anglash tuyg'usidan mahrum bo'lib qolganday his qiladi. Agarda u bu qo'rquvlarni yengib o'z orzulari tomon shahdab qadam tashlay boshlagan chog'da uning yo'lida yana yangi bir sinov va mashaqqatlar kutib turgan bo'ladi. Insonni xafa qiladigan narsa shundaki, so'nggi qadam qolganda ular hamma narsadan voz kechib ketishadi. Oskar Uayld: "Odamzod doimo hayotidagi eng sevgan narsasini barbod qiladi", -deb yozadi. Pul, moddiy dunyoni deb farzandlarini yonib turgan ko'zlarini umrbod ma'yuslikka mahkum qilib qo'yadigan qadrli ota-onalar shuni hech qachon unutmasligingiz kerakki, Boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq, inson bu dunyoda doimo yuksaklikka intilib, yaxshi hayotga ko'z tikib yashaydi. Lekin har kim ham "yaxshi hayot" tushunchasini to'g'ri anglayvermaydi. Balki kimlardir yuksaklikka faqat moddiy hayotdagi ehtiyojlarini qondirish, deb o'ylab, unga erishish uchun hatto jinoyatlardan ham tap tortmay harakat qilishsa, yana kimdur, mutlaqo boshqa yo'lni tanlaydi. Moddiyat, nafsning xoxishlari haqiqiy yuksaklik kafolati emasligini, asl yuksaklik va yaxshi xayot ruhan kuchli, ma'naviy jihatdan mukammal bo'lish ekanligini juda yaxshi anglab, shu yo'lda bor-budini beradi.[2]Shunday insonlar borki, ularga havas qilmaslikning iloji yo'q, o'z istedod va iqtidorlarini ko'ra olgan ota-onalar o'z farzandlarini qo'llab quvvatlagani sababli bugungi kunda butun dunyoga mashxur bo'lishdi. Aytaylik, Kim Ung-Yong 4 yoshli universitet talabasi, IQ "210" darajasi egasi sifatida "Ginnes" rekordlar kitobiga muhrlanib qolgan. Gregori Smit 12 yil davomida 4marta Nobel mukofotiga nomzod, 10 yoshida universitet talabasi bo'ladi. Akrit Yasval 7 yoshli jarroh, 15 yoshida universitet talabasi bundan tashqari oldiga qo'ygan eng katta maqsadi-saraton kasalligiga davo topish. Kleopatra Stratan eng yosh ijrochi, 3 yoshida 2 soatlab katta zallarda konsert bergan, MTV mukofotiga sazovor bo'ldi. Aelita Andre 2 yoshli rassom, onasi san'atga qiziqishini ko'rib Melburmdagi san'at o'qituvchisiga olib boradi va ko'rsatadi, 4 yoshida yakkaxon ko'rgazmasi Nyu-Yorkda ochildi.

Oramizda shunday insonlar ham borki, shu singari buyuk insonlar haqida gapirilsa, ularning qonida bor, ularni sharoiti bilan bizni sharoitimiz keskin farq qiladi singari fikrlarni yuritishadi. Aslida bilishmaydiki, bizning qonimizda qanchadan qancha buyuk zotlar qoni oqmoqda Navoiy, Termiziy, Samarqandiy, Buxoriy, Qodiriy kabi buyuklarning avlodimiz. Ular o'sha paytlarda sham yorug'uda kitoblar mutolaa qilishgan. Endi o'ylab ko'raylik, bolangiz o'zi istagan kasb egasi bo'lishiga imkon yaratib bergan chog'ingizdan boshlab u uchun hech bir narsa to'sqinlik qila olmaydi.

Ingliz bioximigi S.Gouz kishi qobilyatining rivojlanishi uchun to'siqlar biologiyaga qaraganda ijtimoiy sharoitda ko'proqdir, deb uqtiradi.
Ingliz psixologi D. Kidjin ham aynan shunday xulosaga kelib, tarbiyaning kishi intelektual rivojlanishiga hal qiluvchi ta'siri haqida fikr yuritadi.
Ikkinchi konsepsiyaning vakillari qobilyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi deb uqtiradilar. Masalan, Gelvesiy o'z vaqtida tarbiya yordamida geniyni yaratsa bo'ladi, degan edi. Rus olimi A. N. Leont'ev ham o'zining funksional organlar nazariyasi bilan bu nazariyaga A. Uxtomskiy asos solgan bo'lib, shunga o'xshash konsepsiyani yoqlaydi. Ko'zga ko'ringan rus psixologiS. L. Rubinshteyn, A. N. Leontevning konsepsiyasiga norazilik bildiradi. Uning fikricha tug'ma iste'dod nishonalari bu reallikdir, uni rivojlantirish lozim.

Hech bir insonni barmoq izi bir-biriga o'xshamagani singari iqtidorlari ham bir-biridan farqli va o'zgachadir. Mana shunday noyob iqtidorlarni asrab avaylash, uni yanada takomillashtirish va yuksaltirish o'zimizni qo'limizda. To'g'ri, iqtidorimizni yuzaga chiqarishimiz uchun bizga tashqi omillar, ijtimoiy muhit va ba'zi ota-onalarimiz ta'sir ko'rsatadi.

[2] F. I. Xaydarov va N. I. Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent-2009.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Ha albatta, ota-onalarimiz biz uchun faqat yaxshilikni tilashadi ammo, o'zlari bilmagan holda iqtidorimizni so'ndirib qo'yishganini bilmay qolishadi. Shu yo'sinda ko'plab insonlar o'zlari yoqtirmagan kasblarni tanlash orqali yetuk mutaxasis bo'la olishmaydi va hayotlari davomida juda ko'plab murakkabli vaziyatlarga duch kelishadi. Qadrli ota-onalar, farzandingizni fikrini doimo qo'llab quvvatlang, zero yurt uchun yetuk mutaxasislar kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. I. Xaydarov va N. I. Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent-2009.
2. Diloram, E.(2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 16(1), 47-51.
3. Mirvaliyeva M. Oiladagi shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi muammosi //"Scientific approach to the modern education system". – 2022



WORDLY
KNOWLEDGE